


JOURNAL OF

# NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdpu.uz>

2025 /№1 (18)

---

The cover features a photograph of a dense forest of tall, green evergreen trees. The scene is shrouded in a thick, white mist or fog, which softens the background and creates a serene, atmospheric effect. Overlaid on the image are several thin, black diagonal lines that intersect to form a grid-like pattern across the upper and middle portions of the cover. In the bottom-left corner, there is a white rectangular box containing the journal's subject areas.

Chemistry  
Biology  
Geography

<b><u>TAHRIR HAY’ATI</u></b>	<b><u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u></b>
<b>Bosh muharrir</b> Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<b><u>Bosh muharrir</u></b> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <b><u>Tahririyat a’zolari:</u></b> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
<b>Muassasa</b> Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

**YASHASH MUHITIGA ZARAR KELTIRUVCHI BAZI OMILLAR  
CHIQINDI HAVFINI OLDINI OLISH**

*Boltayeva R.A- o'qituvchi*

*Nasriddinova G –talaba*

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada atrof muhitda sodir bo'layotgan jarayonlar, sanoat rivoji iste'mol miqdorining oshishi natijasida kelib chiqayotgan muammolar haqida, noorganik va organik chiqindilar, issiqxona effektini kuchaytirish chora tadbirlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik muhit, issiqlik effekti, global isish, ekologik barqarorlik, ekologik xavfsizlik, piroliz, plastik.

Hozirgi kunda, zamonaviy dunyo aholisining tez sur'atlarda o'sishi, sanoat rivoji va iste'mol miqdorining ortishi natijasida chiqindilar muammosi dolzarb masalaga aylangan. Biz bilamizki chiqindilar nafaqat ekologik muhitga, balki inson salomatligiga va yerning kimyoviy tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada chiqindilarning kimyoviy tarkibi, ularning parchalanishi va atrof-muhitga va insonlarga ta'siri haqida so'z boradi.

Chiqindilarni tarkibiga ko'ra bir nechta guruhlariga ajratish mumkin:

1.Organik chiqindilar: oziq-ovqat qoldiqlari, o'simlik va hayvon qoldiqlari kiradi. Ular tarkibida asosan uglevodorodlar, oqsillar, lipidlar va organik kislotalar mavjud bo'ladi. Organik chiqindilar biologik parchalanish orqali karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ), metan ( $\text{CH}_4$ ) va boshqa gazlar ajralib chiqishiga olib keladi. Bu gazlarning kimyoviy xususiyatlari issiqxona effektini kuchaytirib, global isish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, metan ko'proq zararli hisoblanadi, chunki uning issiqlikni tutish qobiliyati karbonat angidridga nisbatan 25 barobar yuqori bo'ladi.

2.Noorganik chiqindilar: metallar, plastmassa, shisha va boshqa moddalar kiradi. Bular kimyoviy jihatdan inert yoki uzoq muddatli parchalanish jarayoniga ega bo'lgan chiqindilar kiradi. Noorganik chiqindilar ko'pincha atrof-muhitda uzoq

muddat saqlanib, tuproq va suvning kimyoviy tarkibini o'zgartiradi. Masalan, plastik materiallar ultrabinafsha nurlanish va issiqlik ta'sirida mikropartikullarga bo'linadi. Ushbu mikropartikullar suvda eritilib, hayvonot olamiga va inson oziq-ovqat zanjiriga tasir ko'rsatadi.

Qayta ishlash punktlarini tashkil qilish: Mahallangizda chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash uchun joy tashkil qilishni boshlashingiz mumkin. Nima uchun kerak? Jamoa bo'lib ish qilish nafaqat ko'proq odamlarni jalb etadi, balki atrofingizdagi odamlarning ongini ham o'zgartiradi. Buning ijtimoiy va ekologik ta'siri kattaroq bo'ladi.

Chiqindilar xavfi oldini olish bugungi kundagi eng muhim ekologik masalalardan biri bo'lib, bu jarayon nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki tabiiy resurslarni tejash va iqtisodiy samaradorlikka erishishga ham xizmat qiladi. Chiqindilarni boshqarishning eng samarali usuli ularning hosil bo'lishini oldini olishdir. Buning uchun quyidagilar muhim :

-mahsulotlarni sotib olishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, ortiqcha iste'moldan qochish va uzoq muddat foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlarni tanlash zarur.

-hamda mahsulotlar va materiallarni tashlamasdan, qayta foydalanish imkoniyatlarini topish lozim. Misol uchun, shisha idishlar, kiyimlar yoki qog'ozni qayta ishlatish mumkin.

-chiqindilarni saralash va qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy qilish hamda jamiyatda ushbu madaniyatni shakllantirish. Ishlab chiqaruvchilar chiqindilarni kamaytiruvchi va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalardan foydalanishlari kerak, va jamiyatni chiqindilarni oldini olish bo'yicha xabardor qilish va ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, atrof muhitga yetkazilayotgan chiqindilarni oldini olish barqaror rivojlanishga erishishning asosiy sharti bo'lib, bunda har bir insonning mas'uliyatli munosabati va amaliy harakati muhim o'rin tutadi. Faqat

birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan atrof-muhitni asrash va kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratish mumkin bo’ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «Yangi asr avlodi», 2001-y.
2. Baratov R . Tabiatni muhofaza qilish, T., « O‘qituvchi», 1991-y.
4. Jabborov N . Ximiya va atrof-muhit. T., « O‘qituvchi», 1992-y.
5. Сайдаминов С.С. и др. И н ж ен е р н о -техническ и е мероприятия по охране окружающей ей среды. Т., « O‘qituvchi», 1994 г.
6. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. I, II qism. G., « O‘qituvchi», 1994-y.
7. Tursunov X . T . Ekologiya asoslari va tabiatni m uhofaza qilish. «Saodat RIA», 1997-y.
8. Ziyomuhamedov B . Ekologiya va m a’naviyat, T., «Mehnat», 1997-y.
9. To‘xtayev A . S . Ekologiya. T., « O‘qituvchi», 1998-y.
11. Qodirov E . V va boshqalar.Tabiiy muhitni muhofazalashning ekologik asoslari. T., « O‘zbekiston», 1999-y.
12. Qudratov O. Sanoat ekologiyasi, T., TTESI, 1999- y.
13. Xolmurodov J. Ekologiya va qonun , T., « Adolat» , 2000-y.
- 14.UNEP. Окружающая среда в Центральной Азии - 2000 год. EKOSAN xalqaro jamg‘armasi taqdim etgan lazer disk ma’lumotlari.